

**O‘ZBEK ZAMONAVIY SHE’RIYATIDA TURSUNOY ASHURALIYEVA VA MANSUR  
JUMAYEV IJODINING O‘RNI**

**Mehridin Sobirjonov G‘ayratjon o‘g‘li**

*Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi o‘quvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she‘riyatining ikki yorqin vakili — Tursunoy Ashuraliyeva va Mansur Jumayev ijodiga ilmiy nazar tashlanadi. Shoirlarning “Tubo” va “Biz kutgan fasl” to‘plamlari asosida ularning badiiy uslubi, falsafiy mazmuni, ruhiyati va jamiyatga ta‘siri o‘rganiladi. Har ikki shoirning zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi o‘ziga xos o‘rni va she‘riy tafakkurdagi roli ta‘kidlanadi. Maqola o‘zbek she‘riyatining yangi yo‘nalishlari va undagi shaxsiy fikrlar, milliy va global muammolarni ko‘rsatishga qaratilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Tursunoy Ashuraliyeva, Mansur Jumayev, zamonaviy she‘riyat, poetik tafakkur, falsafa, ruhiyat, badiiy tahlil*

**KIRISH**

Zamonaviy o‘zbek she‘riyati, milliy madaniyatimizning muhim qismi sifatida, ko‘plab qirralarga ega bo‘lib, uning doirasida yangi avlod shoirlarining ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Tursunoy Ashuraliyeva va Mansur Jumayev ijodi tahlil qilinadi. Ularning har biri o‘zining o‘ziga xos uslubi va she‘riy falsafasi bilan o‘zbek adabiyotida yangi sahifalarni ochadi.

Tursunoy Ashuraliyeva o‘zining “Tubo” she‘riy to‘plami orqali o‘zbek she‘riyatida yangi estetik va falsafiy qirralarni kashf etdi. Uning she‘rlari ramziy obrazlarga boy, nozik ruhiy holatlarni ta‘sirli ifodalaydi. Shoironing she‘riyatida ko‘proq ayol qalbi, uning ichki dunyosi, orzu-umidlari, hayotiy sinovlari aks etadi.

Ashuraliyeva she‘rlarida tabiat va inson ruhiyati uyg‘unligi seziladi. “Xirgo‘yi”da qizil ipak tola, osmon, nur kabi ramzlar orqali insonning ichki kechinmalari ochib beriladi:

“Qizil ipak tola kabi,  
Ayo’ nurdayin ingich...”

Bu misralar orqali hayotning nozik, ammo shu bilan birga azobli tomonlari ifodalanadi. Shoira tabiat unsurlari orqali inson ruhiyatidagi murakkabliklarni, sevgi, dard va orzu singari tuyg‘ularni poetik unsurlar bor.

“Qismat” she‘rida inson taqdiri, uning murakkab va ko‘p qirraliligi tasvirlanadi. Shoira taqdirni inson boshidan o‘tadigan sinovlar sifatida tasvirlab, insonning qat‘iyati va chidamliligini ta‘kidlaydi:

“Kun sochini o‘rib qo‘ydim,  
Qismat — boshi yorik bola...”

Bu yerda taqdir bilan inson o‘rtasidagi murakkab munosabat, insonning hayotiy kurashi she‘riy tarzda aks etadi.

“Parizot” she’rida esa sevgi, ishq va ruhiy uyg’onishning ko’tarinki kayfiyati ifoda etiladi. Shoir ishqn hayotiy kuch, ma’naviy o’sish vositasi sifatida ko’rsatadi:

“Ishq desa esidan og’adir jonim,  
Sen bilan kechlarim nurafshon, tongli!”

Bu satrlar orqali ishqning inson hayotidagi o’rni va unga bo’lgan chuqur munosabat ifodalanadi.

Endi Mansur Jumayev ijodiga nazar tashlasak. Mansur Jumayev ijodi zamonaviy o’zbek she’riyatida falsafiy fikr, ijtimoiy masalalar va shaxsiy ruhiyatning uyg’unligida o’ziga xos o’rin tutadi. Shoirning “Biz kutgan fasl” to’plami inson ruhining ichki og’riqlari, imon, sevgi va haqiqat qidiruvidan ilhomlangan.

Jumayev she’riyatida oddiy, lekin ta’sirli til ishlatiladi. U she’rlarida hayotiy haqiqatlarni, inson qalbidagi dard va umidlarni ochiq-oydin tasvirlaydi. Masalan, “Ko’z yoshi ham kutmagin” she’rida muhabbatning sadoligi va og’rig’i shunday ifodalanadi:

“Ko’z yoshi ham kutmagin  
sevinmagan odamdan;  
sevgi so’rma,  
sevgilim,”

Uning “Masih tavalludi” she’rida esa diniy-falsafiy elementlar yaqqol namoyon bo’ladi. Shoir inson ruhining og’riqlaridan poklanishi, kamol topishi haqida fikr yuritadi:

“Ichingda Iso bordir,  
dard chekmasang tug’ilmas.”

Bu misralar orqali dard va sinovlar insonni yangi ruhiy bosqichga olib chiqishini bildiradi. Yoki “Niyat” she’ri insonning ichki kurashi, yolg’on va haqiqat o’rtasidagi kurashni tasvirlaydi. Shoir bu mavzu ijtimoiy va shaxsiy falsafaning markazida turadi:

“Onamni aldadim soppa-sog’man deb,  
Otamni aldadim: “Pulim bor doim”...  
Men seni nima deb alday, Xudoyim?!”

Bu satrlar orqali shoir inson qalbidagi iztirob va tavba kayfiyatini ochib beradi. Tursunoy Ashuraliyeva va Mansur Jumayev ijodida umumiy ravishda inson ruhiyatining

chuqur tahlili, hayotiy haqiqatlarga sodiqlik, milliy an'analar va zamonaviylik uyg'unligi seziladi. Ularning har biri she'riy uslub va mavzuda o'ziga xos yondashuvni namoyish etadi.

Xulosa qilib aytsak, Tursunoy Ashuraliyeva va Mansur Jumayev zamonaviy o'zbek she'riyatida o'ziga xos ovozlari sifatida ko'riladi. Ularning ijodi milliy va zamonaviy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda o'quvchini chuqur tafakkurga chorlaydi. Ashuraliyeva she'riyati nozik ruhiyat, ayol kechinmalari, orzu va ishqni poetik ramzlarda ifodalaydi. Jumayev esa inson ruhining ma'naviy iztiroblari, ijtimoiy muammolar va falsafiy qarashlarni soddalashtirilgan til orqali yetkazadi. Ushbu ikki shoirning ijodi o'zbek zamonaviy she'riyatining yangi ufqlarini ochib beradi va adabiy jarayonga yangi nafas olib kiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tursunoy Ashuraliyeva. Tubo (she'rlar). Toshkent: Adabiyot nashriyoti.
2. Mansur Jumayev. Biz kutgan fasl. Toshkent: Akademnashr, 2024.